

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘ZBEK MATBUOTIDAGI BIRINCHI PUBLITSIST AYOL

Xurshida AKBARQULOVA

O‘zJOKU talabasi

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi
Sayyora Halimova**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek matbuotidagi birinchi publitsist ayol Nozimaxonim ijodi va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, publitsistik maqolalari hamda she‘rlari haqida ma‘lumot beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** jadid, matbuot, ayollar huquqi, millat, hukumat, publitsistika, maktab, ta‘lim, gazeta.*

O‘zbek matbuoti tarixida XX asr boshlarida faoliyat olib borgan birinchi publitsist ayol Nozimaxon ijodi alohida ahamiyatga ega. U o‘z davrining ilk milliy nashrlarida hajviy-tanqidiy uslubdagi maqolalari, she‘rlari bilan zamonasining bor illatlarini yoritib bergan. Nozimaxonim Toshkentning Beshyog‘och dahasida taraqqiyparvar ziyolilaridan biri Mulla Said Ahmad xonadonida 1870-yilda dunyoga keladi. Qizini eski usuldagi maktabda, so‘ngra qizlar uchun ochilgan rus-tuzem gimnaziyasida o‘qitib, ma‘lumotli qiladi. Ilm-ma‘rifatga yoshligidanoq mehr qo‘ygan o‘ta ziyrak Nozimaxonim, arab, fors, tatar va rus tillarini yaxshi bilgan. U shuningdek, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Xurshid”, “Osiyo”, “Sadoyi Turkiston”, “Ulug‘ Turkiston” gazetalaridagina emas, balki Samarqandda chop etilgan “Oyina” va Ufada nashr etilgan “Sho‘ro”, Ozarbayjonda chop etilgan “Irshod” jurnallarida ham o‘zining g‘azallari, hajviy she‘rlari va publitsistik maqolalari bilan qatnashib turadi. Iste‘dodli ijodkor jamiyatdagi notinchlikka, ayollar ta‘limiga doir muammolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabat bildirib, o‘z fikr-mulohazalarini matbuotga olib chiqishdan cho‘chimaydi¹. Nozimaxonim ijodida xotin-qizlar ozodligi, ularning jamiyatdagi o‘rni, huquqi masalalari chuqur tahlil etilgan. O‘sha davrda Karimbek Kamiy, Saidahmad Vasliy va Sharafiddin Xurshidlar “Tasattiri nisvon” ya‘ni “xotin-qizlarni pardada saqlash” g‘oyasini targ‘ib va himoya qilishgan. Ularga qarshi Nozimaxonim, Tavallo, Anbar Otinlar qizlarni o‘qitish zarurligi, millatni tarbiya qiluvchi asosiy shaxs ayollar bo‘lgani uchun ular bilimli va salohiyatli bo‘lishi lozimligi, qolaversa, oila muhabbat asosida qurilib, nikoh teng huquqli bo‘lishi masalalarini, ayollarning ham jamiyat ishlarida faol ishtirok etishini targ‘ib qilishdi. Ayollarga buyum yoki nasl qoldiruvchi vosita sifatida emas, jamiyatda mavqega ega shaxs, imkon berilsa ko‘p narsani uddalashi mumkinligini isbotlashga harakat qilishdi. Quyidagi fikrlar ham bunga misol bo‘ladi:

¹ Alimova M. O‘zbekistonda ayollar matbuoti tarixi. O‘zbekiston.T; -B.34.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Butun insoniyat olamining tirikchiligi yolg‘iz xotunlar soyasidandir deb aytsak shoyad xato qilmagan bo‘lurmiz, xotunlar butun olam insoniyatining onasidirlar: payg‘ambarlar, rasullar, podshohlar, olimlar, adiblar va shoirlar hammasi shul muhtaram volidalarning bolalaridirlar”² Nozimaxonimning she‘r va maqolalari 1900-yildan matbuotda bosilgan. 20 yoshlarida shoira “beshyog‘ochlik Nozimaxonim” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Taraqqiyot, ma‘rifat va madaniyatni tashviq etuvchi she‘r va manzumalari, jaholat, bid‘at-xurofotni fosh etuvchi asarlari, zamonasidagi ijtimoiy tengsizlik va avj olgan milliy istibdoddan keskin norozilik bayon qilingan o‘tkir hajviy she‘rlari “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston”, “Taraqqiy” kabi gazetalarda muntazam chiqib turgan. Shoira mehnatkash xalqning milliy ozodlik harakatini qo‘llab-quvvatlagan, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va o‘rni haqida asarlar yozgan, jaholat va zulm poymol etgan o‘zbek ayolining milliy, insoniy haq-huquqlarini talab qilib chiqqan³. Nozimaxonim o‘z davrining madaniyatli va o‘zgacha fikrlaydigan ayoli edi. Shubhasiz bunga uning, Ovropaning adabiyoti bilan tanishligi, Orenburg va Qozonda chiqadigan matbuotni muntazam kuzatib borishi, bir so‘z bilan aytganda mamlakatdan tashqaridagi muhitdan xabardorligi ham sabab bo‘ladi. Uning 1904-yilda “Turkiston viloyatining gazetasi”da bosilgan maqolalaridan biri “Insonga qancha erk darkor?” deb nomlangan edi. So‘ng ketma-ket mahalliy matbuot sahifalarida “Xotinlar huquqiga oid”, “Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z” kabi maqolalari chop etildi. Ularda o‘zbek ayolining tutqun va turg‘un jamiyatdagi roli va o‘rni masalasi qo‘zg‘aldi. Adib zulm va jaholat poymol etgan o‘zbek ayolining milliy, insoniy haq-huquqini talab qilib chiqdi. Bu yo‘ldagi har qanday ozodlik harakatlariga xayrixohlik bildirdi. Ularni qo‘llab-quvvatladi. U o‘z maqolalari bilan ayollarimiz orasidan yetishib chiqqan birinchi jurnalist bo‘lib qoldi. Uning bu maqolalari o‘z mazmuni, o‘z ruhi bilan Turkistonda ozodlik g‘oyalarining yoyilishida shubhasiz, katta xizmat qildi⁴. Uning 1907-yilda “Shuhrat” gazetasida chop etilgan “Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z” nomli publitsistik maqolasida Turkistondagi o‘qitish tizimini tanqid ostiga olingan. Boisi, o‘sha davrda maktab, madrasalarda geografiya, xorijiy tillar, hisob ilmi, tarix kabi bilimlar emas, asosan diniy ilmlar o‘qitilar, aksar muallimlarning o‘zi ham dunyoviy ilmlardan bexabar edi. Buni tushungan jadid ma‘rifatparvarlarimiz maktablarda diniy ilm bilan birgalikda dunyoviy ilmlarni ham kiritilishi zarurligini, shu tariqa zamona ilmidan xabardor yangi muallimlar, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan yoshlarni tarbiyalash mumkinligini xakqqa anglatishga harakat qilishgan. Nozimaxonim ham bu xususida bir qancha she‘rlar bitib, dunyodan xabardor bo‘lish, xorijiy tillarni o‘rganish, xususan, “O‘qing rusi zabonin, el aro bu

² Faxriddinzoda Z. Huquqinivon//Sadoyi Turkiston, 1914, 12-noyabr.

³ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/nozimaxonim-1870-1924>.

⁴ Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoyilik. Ma‘naviyat. T.;-B.156.

yaxshi xislatdur, Zaboni bezabon bo‘lmoq, biling, bu koni illatdur” deb boshlangan she’rida ham til bilish keng imkoniyatlarni ochishi g‘oyasi ilgari surilgan. Shoirani yana bir, “Faryod” (“Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil, 7-iyul, 25-soni) nomli she’rida “Dilki millat g‘amida qon o‘ldi”, - deya oh uradi. She’rda quyidagi misralar orqali millatning qanchalik og‘ir ahvoldaligini ko‘rsatib bergan: “Har mahalla ichida to‘rt samovar, ba’zi nodon chiqib qimor o‘ynar, Qildi boylar taraqlatib to‘ylar, qazi-qarta qo‘yib, so‘yib qo‘ylar”⁵. Nozimaxonim she’rida, befarq, beg‘am, kunini samovarda qimor o‘ynash-u, og‘izlarini g‘iybatdan bo‘shatmaydigan millatdoshlarining hayotini gavdalantiradi. Ilmsiz boylar esa pulini ma’rifatga emas, dabdabali to‘y qilish bilan obro‘ orttirishga sarflashini tasvirlagan. Shuncha vaqt o‘tdi-yu, ammo bu muammolar hozirgi davrda ham dolzarbligicha qolmoqda. Nozimaxonim jurnalist, shoir bo‘lishi bilan birga bir necha shogirdlariga ham ustozlik qilgan. Uning shogirdi Manzurabonu Majidovaning xotirlashicha Nozimaxonim tatar va rus tillarida ularga she’rlar, kitoblar tarjima qilib o‘qib berar, tatar ma’rifatparvarlari bilan ham maktublashar ekan. Shoiraning ijodiy materiallari o‘sha vaqtdagi ko‘plab jadid matbuotlarida chop etilgan, ammo ularning 20dan ortiqroq nusxasigina saqlanib qolgan. U o‘z she’rlari va publitsistik maqolalari bilan milliy adabiyotimiz va jurnalistikamiz rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Bu ilg‘or fikrli publisist merosini o‘rganish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimova M. O‘zbekistonda ayollar matbuoti tarixi. O‘zbekiston. T:2021.
2. Faxriddinzoda Z. Huquqinisvon//Sadoyi Turkiston, 1914, 12-noyabr.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/nozimaxonim-1870-1924>
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. Ma’naviyat. T:2002.

⁵ “Sadoi Turkiston”, 1914, 7-iyul, 25-son.